

PROFILAKTIKA INSPEKTORINING HUQUQBUZARLIKLER PROFILAKTIKASINI AMALGA OSHIRISHDA FUQAROLAR BILAN HAMKORLIGINING BUGUNGI HOLATI

Soyibov Sardor Dilmurod o'g'li

Ichki ishlar Vazirligi Akademiyasi 306-guruh kursanti

Annotation: In this article, the essence and specific features of the prevention inspector's cooperation with citizens in the implementation of crime prevention, the main directions, methods and forms, problems and shortcomings in the organization of cooperation and their solutions are highlighted.

Key words: Preventive inspector, citizens, neighborhood, offense, prevention of offenses, measures of prevention of offenses, assembly of citizens of the neighborhood

Annotatsiya: Ushbu maqolada profilaktika inspektorining huquqbazarliklar profilaktikasini amalga oshirishda fuqarolar bilan hamkorligining moxiyati va o'ziga xos hususiyatlari, asosiy yo'naliishlari, usul va shakllari, hamkorlikni tashkil etishdagi muammo va kamchiliklar hamda ularning yechimlari yuzasidan fikr va mulohazalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Profilaktika inspektori, fuqarolar, mahalla, huquqbazarlik, huquqbazarliklar profilaktikasi, huquqbazarliklar profilaktikasining chora[1]tadbirlari, mahalla fuqorolar yig'ini

Аннотация: В данной статье раскрыты сущность и особенности сотрудничества инспектора по профилактике с гражданами при осуществлении профилактики преступности, основные направления, методы и формы, проблемы и недостатки в организации сотрудничества и пути их решения.

Ключевые слова: Инспектор по профилактике, граждане, микрорайон, преступность, профилактика преступности, меры по предупреждению преступности, общественные собрания.

Xalqimizning muqaddas va azaliy, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan, ulug' ajdodlarimiz hayoti va faoliyatining asosiy mezoni hamda insoniylik bilan yo'g'rilgan o'zbek xalqi ma'naviyatining ajralmas qismi bo'lган vatanparvarlik, xalqparvarlik, adolat, haqiqat, insonparvarlik, kechirimlilik, rahmdillik, mehr-shafqat, bag'rikenglik, insofu-diyonat kabi xislatlari milliy urf-odatlarimiz zamirida mujassam bo'lган. Insonni ulug'lash, oila, ota-oni va farzand muqaddasligi, tinch va osoyishta hayot, do'stlik va totuvlikni qadrlash, turli muammolarni birgalashib hal qilish kabi qadriyatlarga asoslangan. Bu azal-azaldan shunday bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi. Shuning uchun ham, olis kelajakda emas, balki bugungi kunda, xalqimiz ayni vaqtida yaxshi yashashi munosib hayot kechirishi va barcha imkoniyatlardan

bahramand bo‘lishini ta’minlashga qaratilgan xalqparvar tizimni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha keng ko‘l amli isloxaqtar amalga oshirilmoqda. Taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo‘yilayotgan hozirgi sharoitda “biz o‘z faoliyatimizni buyuk kelajagimizni bugundan boshlanadi degan shior asosida tashkil etishimiz, xalqimizning farovon xayotini ta’minlash uchun bor kuch va salohiyatimizni ishga solishimiz zarur”ligi qayta qayta ta’kidlanmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev aholi bandligini ta’minlash, ularning turmush tarzini yaxshilash borasidagi ko‘rsatmalari asosida bugungi kunda sektorlar miqyosida “Temir daftari”, “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari” yuritilib, ijtimoiy hisoyaga muhtoj oilalar va fuqarolarning muammolarini naiqlash va bartaraf etish borasida keng ko‘lamli chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan mutlaqo yangi tizim joriy etildi. Mazkur tizimga asoslanib hozirda respubliamizda “Mahallabay”, “Oilabay” va “Fuqarobay” ishlash yo‘lga qo‘yildiki bu jarayonlar ichki ishlar organlari, bevosita profilaktika inspektorining mahalla, shu bilan birga fuqarolar bilan hamkorligini takomillashtirishga xizmat qiladi. Huquqbazarliklar profilaktikasi deganda huquq-tartibotni saqlash hamda mustahkamlash, huquqbazarliklarni aniqlash, ularga barham berish, shuningdek ularning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon beraётган shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish maqsadida qo‘llaniladigan huquqbazarliklar umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktikasining huquqiy, ijtimoiy, tashkiliy va boshqa chora-tadbirlari tizimi. Shu bilan birga, qonunning amal qilish doirasini aniq belgilab qo‘yish muhim ahamiyatga ega. Misol uchun, ushbu qonun soliq, valyuta, bank, sug‘urta, transport, harakat xavfsizligi, ekologiya, sanitariya-gigiyena, bojxona, huquq-tartibot idoralari faoliyati bo‘yicha jamoatchilik nazoratini amalga oshirish munosabatlarini qamrab olishi zarur. Ayni paytda qonun bilan jamoatchilik nazoratini yurituvchi asosiy tuzilmalarni belgilab qo‘yish talab etiladi. Chunki, profilaktika inspektorlari aynan ushbu sohadagi ishlarni nazorat qilishda va ma’lumotlar olishda fuqarolarning yordamiga suyanadi. Profilaktika inspektorining hisobotini eshitish bo‘yicha o‘tkaziladigan yig‘in fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) tomonidan olib boriladi. Yig‘in bayonnomasi fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli), fuqarolar yig‘ini mas’ul kotibi, ichki ishlar organining ushbu hududga mas’ul etib biriktirilgan rahbari tomonidan imzolanadi. Huquqbazarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organ va muassasalar vakillari profilaktika inspektorlarining hisobotini eshitish bo‘yicha o‘tkaziladigan yig‘inga fuqarolar yig‘ini tomonidan taklif etiladi. Profilaktika inspektorlari quyidagi asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha hisobot beradi:

– huquqbazarliklar profilaktikasini, ayniqsa, voyaga yetmaganlar va yoshlar o‘rtasida tashkil etish, huquqbazarliklarning sodir etilishi sabablarini, ularga imkon beruvchi shart-sharoitlarni aniqlash, o‘rganish va bartaraf etish;

– voyaga yetmaganlar va yoshlar bilan ularni Vatanga muhabbat, vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga, yosh avlodni terrorizm, diniy ekstremizm, zo‘ravonlik va shafqatsizlik g‘oyalaridan himoyalashga yo‘naltirilgan ishlarni bevosa amalga oshirish;

– huquqbazarliklar profilaktikasi, fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirish masalalari bo‘yicha ichki ishlar organlarining boshqa bo‘linmalar, davlat organlari, tashkilotlar, fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari bilan o‘zaro hamkorlikni amalga oshirish;

– huquqbazarliklarni aniqlash va ularga chek qo‘yish, huquqbazarliklarning sodir etilishi sabablari va ularga imkon beruvchi shart[sharoitlarni bartaraf etish bo‘yicha maxsus profilaktik chora-tadbirlarni, shuningdek, huquqbazarliklarni sodir etishga moyil shaxslar bilan profilaktika ishlarini amalga oshirish;

– o‘quvchilarining ta’lim muassasalaridagi davomatini nazorat qilish, ijtimoiy xavfli holatda bo‘lgan va ta’lim muassasalariga qatnamaydigan voyaga yetmaganlar va yoshlar, shuningdek, ushbu toifadagi shaxslarning ota-onalari bilan profilaktika ishlarini olib borish. Profilaktika inspektorlari hisobot berish jarayonida qonun hujjaligiga muvofiq qo‘riqlanadigan davlat va xizmat sirlarini himoya qilishi hamda insonlarning shaxsiy va oilaviy sirlarining daxlsizligini ta’minlashi lozim. Ma’lumki, har bir mahallani jinoyatchilikdan xoli hududga aylantirish, bu borada befarqlik, loqaydlik holatlariga barham berish jamiyatda tinch va osoyishta hayotni ta’minlashning asosiy shartlaridan biridir. Bu borada har 19 bir fuqaro ongida “Mening mahallamda jinoyat sodir bo‘lmasligi kerak” degan tuyg‘uni shakllantirish g‘oyat muhim ahamiyatga ega. Darhaqiqat, jamiyatda huquqbazarliklar sodir etilishining asosiy sababi shaxsdagi ma’naviyatning shakllanmaganligi yoki jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning bartaraf etilmaganligi natijasidir. Bugungi kunda mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini shakllantirishning zamonaviy talablari mahallalar tomonidan amalga oshirilayotgan vazifalarning samarali ijrosini ta’minlash uchun tizimni takomillashtirishni takozo etmoqda.

Har qanday jamiyatning muhim qismi hisoblangan fuqarolar davlatning ravnaqi va rivojlanishi, uning tinchligi va osoyishtaligini saqlashda asosiy rolni o‘ynaydi. Bu qadimdan o‘z isbotini topgan va bugungi kunda amal qilinishi lozim bo‘lgan qoidaga aylangan. Bundan tashqari jamiyat a’zolari qachonki qonun ustuvorligi ta’minlangan davlatdagina rozi bo‘lib yashaydi, shu bilan birga davlat organlariga bo‘lgan ishonchi yana-da ortadi, o‘z navbatida ulardagи Vatanparvarlik va qonunlarga itoat qilish xususiyatlari shakllanadi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentdi Shavkat Mirziyeyov: “Biz “Adolat – qonun ustuvorligida” degan tamoyil asosida jamiyatimizda qonunga hurmat, huquqbazarlik holatlariga murosasizlik hissini kuchaytirishga qaratilgan ishlarimizni jadal davom ettiramiz. Bu borada huquqbazarlik holatlarining oldini olishga alohida e’tibor qaratiladi. Buning uchun avvalo, mahalla

imkoniyatlaridan keng foydalanish, profilaktika inspektorlarining ish samarasi va ma'suliyatini oshirish, ular uchun munosib xizmat va turmush sharoitini yaratib berish choralarini ko'rishimiz darkor" - takidlab o'tdi.

Islohotlarning bugungi bosqichida qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarda ham profilaktika inspektorining fuqarolar bilan hamkorligini ta'minlashga qaratilgan alohida qoidalar belgilab berilmoxda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdag'i "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6196-son farmoniga muvofiq profilaktika inspektoriga masofadan turib murojaat yuborish va uni ko'rib chiqish jarayonini kuzatib borish, aholi bilan o'zaro tezkor muloqotni yo'lga qo'yish, profilaktika inspektorlari va sektor rahbarlari faoliyatiga baho berish imkonini beruvchi «Smart mahalla» axborot dasturini amaliyotga joriy etilishi yaqqol misoldir. Ushbu dasturning yaratilishi profilaktika inspektori bilan fuqarolarning yaqinligini ta'minlash bilan bir qatorda, hududda huquqbazarliklar profilaktikasi yo'nalishida amalga oshirilayotgan ishlarning ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatilishini ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasining 2018 yil 12 apreldagi "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonunning maqsadi davlat organlari va muassasalari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini tashkil etish hamda amalga oshirish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat, - deb belgilanganligi ham fuqarolarning jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda ishtirokini ta'minlaydi. Ta'kidlash lozimki, har fuqaro o'zi yashab turgan joyda tinchlik va osoyishtalikni ta'minlashga ma'sul bo'lib, bu borada doimo faol va tashabbuskor bo'lishi, hech bir salbiy holatga befarq bo'lmasligi lozim. Bunday xususiyatlarni shakllantirishda profilaktika inspektorining roli alohida o'rinni egallaydi.

Xususan, ular tomonidan aholi o'rtasida manzilli huquqiy targ'ibot ishlarini tashkil etish, fuqarolarni muntazam ogohlilikka chaqirishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, har bir mahallani jinoyatchilikdan xoli hududga aylantirish, bu borada befarqlik, loqaydlik holatlariga barham berish jamiyatda tinch va osoyishta hayotni ta'minlashning asosiy shartlaridan biridir. Bu borada har bir fuqaro ongida "Mening mahallamda jinoyat sodir bo'lmasligi kerak" degan tuyg'uni shakllantirish g'oyat muhim ahamiyatga ega. Ta'kidlab o'tish joizki, bugungi kunda profilaktika inspektorining fuqarolar bilan hamkorligini samarali tashkil etishga to'sqinlik qiluvchi bir qancha omillar mavjudki ularni bartaraf etmay turib kerakli natijalarga erishib bo'lmaydi. Bularga, birinchidan, fuqarolar ichki ishlar organlariga nisbatan ishonchning kamligi; ikkinchidan, profilaktika inspektori va fuqarolar o'rtasidagi hamkorlikni ta'minlashning aniq mexnizmi yaratilmaganligi; uchinchidan, fuqarolarda tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash, huquqbazarliklar profilaktikasi ishtirokining kamligi va boshqalar. Shu boisdan, profilaktika inspektorining fuqarolar bilan

hamkorligini mexanizmini yaratish, ularning ishonchini qozonish, fuqarolarning huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha faolligini oshirish yuzasidan zaruriy tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Ta'kidlash lozimki, profilaktika inspektorining fuqarolar bilan hamkorligi keng imkoniyatlarga egadir, shu boisdan ulardan samarali foydalanish va quyidagi yo'nalishlarda manzilli chora-tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi:

- jinoyat va ma'muriy huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish, ular haqida o'zaro axbortlar almashish;

-ma'muriy hududda keng ko'lamdag'i nazorat ishlarni amalga oshirish, o'z navbatida "o'z uyingni o'zing asra" degan so'zga amal qilgan holda fuqarolardan ko'ngillilari bilan birgalikdagi ishlarni tashkil etish va amalga oshirish;

-ma'muriy hududda jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta'minlash;

-ma'muriy hududda huquqbuzarliklarning umumiy, maxsus, yakka tartibdag'i va viktimologik profilaktikasini tashkil etish va amalga oshirish;

-ma'muriy hududda pasport-viza va nazorat-litsenziyalash qoidalariga rioya etilishini ta'minlash;

-faoliyati taqiqlangan tashkilotlar, diniy-ekstremistik guruhlar va shu kabi faoliyatga aloqador bo'lgan shaxslarni;

-ma'muriy hududda sodir etilgan jinoyatlarni aniqlash va fosh etish choralarini ko'rish; -jinoyat sodir etib sud va tergov organlaridan yashirinib yurgan, bedarak yo'qolgan shaxslar, axloq tuzatish ishlari tariqasida jazodan bo'yin tovlab yurgan mahkumlarni qidirib topish, shaxsi noaniq murdalarni shaxsini aniqlash;

-huquqbuzarlikdan jabrlangan shaxslarga yordam ko'rsatish;

-favqulodda hodisalar oqibatlarini bartaraf etish.

Muxtasar qilib aytganda, profilaktika inspektorining huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishda fuqarolar bilan hamkorligi, birinchidan, aniq rejalashtirilgan bo'lishi, ikkinchidan, ixtiyorilik asosida tashkil etilishi, uchinchidan, fuqarolarning faolligini oshirish bo'yicha choralar ko'riliши, то'rtinchidan, jamiyat a'zolarining ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish orqali ta'minlanadi.\

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Тошев Б. Нодавлат нотижорат ташкилотлари ва бошқа жамоат тузилмалари фаолиятини такомиллаштиришнинг долзарб масалалари // Хукуқ–Право–Law. – 2002. – № 4. – Б. 54–56

2. Тартиб-интизом ва масъулиятни кучайтириш, жиноятчиликнинг олдини олиш муҳитини мустаҳкамлаш – хукуқбузарлик профилактикаси самарадорлигининг асосий омилидир // URL: <http://xs.uz> (Халқ сўзи, 15.11.2017)

3. Ўзбекистон Республикасининг 2018 йил 12 апрелдаги “Жамоатчилик назорати тўғрисида”ги Конун

4. Мирзиёев Ш.М. “Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови”. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганинг 24 йиллигига бағишиланган тантанали маросимдаги маъruzаси./ Халқ сўзи., 2016., № 243 (6678) Б.1-3.

5. Ш.М.Мирзиёев. Эркин ва фаровон ҳаётимиз, мамлакатимизни янада тарақкий эттиришимизнинг янада мустаҳкам пойдеворидир. Ўзбекистон Республикаси Конститутцияси қабул қилингандигининг 25 йиллигига бағишиланган тантанали маросимдаги маъruzасидан //Халқ сўзи 2017.-№345